

O‘SMIRLIK DAVRIDA NOMOYON BO‘LADIGAN DEVIANT XULQ-ATVOR

¹Karakulova Umida Abduvakilovna-O‘z MU Jizzax filiali “Oila psixologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

²Berdiyorova Sevinch Oybek qizi, ³Rejepbayeva Aygul Zokirboy qizi- O‘z MU Jizzax filiali talabalari

umida260686@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining dastlabki ko‘rinishlari va kelib chiqish sabablari, omillari xususida yozilgan. Shuningdek, maqolada deviant xulq-atvor tiplari hamda nazariy talqini batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Deviant xulq-atvor, mayl, mezamorf, ektamorf, endomorph, psixopatiya, agressiya, xarakter.

Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatları, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni to‘g‘ri qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, balki, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi. Turg‘unlik yillaridagi so‘z bilan ishning nomuvofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo‘pol xatolar o‘smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi ham g‘oyat jiddiy tus oldi.

Deviant tushunchasi lotincha «deviation» so‘zidan olingan bo‘lib, og‘ish, chetga chiqish degan ma’noni bildiradi. Deviant xulq-atvorli kishilarni xulqi og‘ishganlar deb ham ataladi. L.S.Vigotskiy fikricha, qiyin o‘smir xayoti

munosabatlar xarakterining yig‘indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning malum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bo‘ladilar. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish ularga ba’zi xuquqlarni berish bilan ularga tasir o‘tkazish mumkin¹. Psixologiyada xulqi og‘ishgan o‘quvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud. Birinchi gurux-ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar. Ikkinci gurux- qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar. Uchinchi gurux- ijobiy va salbiy xulq atvor steriotiplari o‘rtasida ikkilanuvchi, o‘z holatlarini tushunuvchi bolalardir. To‘rtinchi gurux- irodali bolalarga bo‘ysinuvchilar. Besinchi guruh-qonunbuzarlik yo‘liga tasodifan kirib qolganlar. Ijtimoiy psixolog G.M. Andreyeva ijtimoiylashuvni quyidagicha tar’riflagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy me’yorlik va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, zarur bo‘lsada, bu jarayon uning butun umri bo‘yi davom etadi. Birorta ham inson o‘ziga boshqa insonlarning o‘tkazadigan ta’sirisiz mavjud bo‘la olmaydi va bu uning xulqatvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi². Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida turli xil qarashlar mavjud. Jinoyatchilikning boshqa shakllarini izohlashga bo‘lgan dastlabki urinishlar asosan biologik tabiatga egadir. Biologik nazariya tarafdarlarning fikricha, jinoyatchilarning bosh chanog‘i va miyasining tuzilishi qonunga amal qiluvchi kishilarning miya tuzilishidan farq qiladi. XIX asrning 70-yillarida faoliyat ko‘rsatgan italiyalik kriminalshunos Chezare Lombrozo «Ba’zi odamlar jinoiy mayllar bilan tug‘iladilar va ular ibridoiy insonlar tipiga mansub bo‘ladilar», degan xulosaga keldi. Uning fikricha, jinoyatchi tiplarni bosh chanog‘i shakliga qarab aniqlash mumkin. U ijtimoiy tajribaning kriminal xulq rivojiga ta’sirini inkor etar edi, uning asosiy g‘oyasi-ko‘pchilik jinoyatchilarning biologik jihatdan degenerativ va defektli ekanida edi.

Richard Daygdeyglning fikricha, «ba’zi jinoyatkorona xulq-atvor shakllanishi uchun xos bo‘lgan mayllar doimo avloddan-avlodga o‘tib turadi».

Biologik omil va jinoyatga mayl orasidagi bog‘liqlik g‘oyasi Vilyam Sheldon ishlarida 1940 yillarda qaytadan tiklandi. Sheldon odamlarning 3 jismoniy tipini ajratib ko‘rsatdi:

Mezomorf tip: (mushakdor, faol)

Ektomorf tip: (suyak tizimi yaxshi rivojlangan)

Endomorf tip: (to‘lalikka moyil odamlar)

Uning fikricha, ulardan biri – mezomorf tip huquqbazarlikka mayl bilan bevosita bog‘liq. Boshqa olimlar tomonidan keyinroq o‘tkazilgan tadqiqotlar ham shunga yaqin natijalar berdi. Hozirgi kungacha bunday qarashlarning himoyachilari bo‘lsa ham, u tadqiqotlar kuchli tanqidga sabab bo‘ldi. Agar hatto odamning jismoniy tuzilishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud, deb faraz qilsak ham, bu irsiyatning ta’siri masalasini ravshanlashtirmaydi.

V.Sheldon jinoyatchilik bilan bog‘lagan mushakdor odamlar kuch talab qilgani uchun ham banday faoliyatiga jalb etilgan bo‘lishi mumkin. Jinoyatning psixologik nazariyalari ham, biologik nazariyalar kabi jinoiy mayllarni shaxsning muayyan tipi bilan bog‘lar edi. Jinoyatni psixologik jihatdan talqin qilishga Freyd g‘oyalari, garchi Freydning o‘zi kriminologiya bo‘yicha hech narsa yozmagan bo‘lsa ham muayyan ta’sir o‘tkazdi. Keyingi mualliflar unchalik ko‘p bo‘lmagan odamlarda «axloqsiz» yoki psixopatik shaxs rivojlanadi, degan fikr bilan uning g‘oyalariga asoslanishdi. Freyd fikriga ko‘ra, rivojlanishning Edip bosqichida, ilk bolalikda o‘rganiladigan, o‘zini cheklashlardan ko‘pchilik axloqiy sifatlar vujudga keladi. Ota-onalar bilan o‘ziga xos munosabatlar shakllanishi oqibatida, ba’zi bolalarda bunday cheklov shakllanmaydi va demak axloqiylik tuyg‘usi asosan mavjud bo‘lmaydi. Psixopatlarni zo‘rlikdan lazzat oladigan odamovi shaxslar sifatida tavsiflash mumkin. A.I.Dolgova o‘smirlar misolida shaxs dezadaptatsiyasining zo‘ravon va g‘arazli tiplarini ajratadi. Zo‘ravonlik tipida o‘z-o‘zini tasdiqlashga intilish, o‘zini kuchli, haqiqatgo‘y, har doim yordamga tayyor mehribon natura deb tasavvur etish xohishi mavjud. Biroq haqiqatgo‘ylik haqidagi tasavvur bunday shaxslarda noto‘g‘ri, ish mohiyati bo‘yicha ularning axloqi

jinoyatchining axloqi hisoblanadi. Ular uchun guruhli egoizm, norasmiy guruhlarga uzviy bog‘langanlik shafqatsizlik kuchga ibodat qilish, o‘z axloqining to‘g‘riligiga ishonch tipik xususiyat hisoblanadi. G‘arazli tip uchun guruhli emas, individual egoizm harakterli. Uning vakillarida qadriyatli orientatsiya ancha nuqsonli, ular o‘z harakatlarining qonunga qarshi harakterini to‘la anglaydilar. Bunday o‘smirlarga sirlilik axloqsizlik g‘arazli ko‘rsatmalarning mavjudligi, anchagina chuqur ijtimoiy qarovsizlik xosdir. Amaliyotning kattagina qismida ko‘rsatilgan tiplarning kombinatsiyasi bilan ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduvakilovna, K. U., & Xusanovna, R. X. (2022). O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI. Journal of new century innovations, 19(2), 91-94.
2. Abduvakilovna, K. U., & Baxriddin o‘g‘li, X. J. (2022). O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Journal of new century innovations, 19(2), 87-90.
3. Abduvakilovna, K. U. (2022). OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI. Journal of new century innovations, 19(2), 95-98.
4. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA’SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
5. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

7. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O 'QITUVCHI VA TALABALAR O 'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
8. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 586-589.
9. KARAKULOVA U.A. Deviant xulq-atvor rivojlanishida oilaviy munosabatlarning ta'siri // Педагогик ва психологик тадқиқотлар. № 1 (2023) Б. 158-164. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7586846>
10. Abduvakilovna, K. U. (2022). O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 763-767.
11. Файзуллаева, Г. (2022). Oilada muloqotchanlikka kirishishning psixologik jihatlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 469-471.
12. Alimov, N., & Gulrukh, F. (2022). Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 6, 38-41.
13. KARAKULOVA, U. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDA BOLALAR DIQQATINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. <Https://imfaktor.Uz/>. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7586846>
14. Yuldashev, S. (2021). THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN MILITARY EDUCATION. International Journal of World Languages, 1(2).
15. Asliddin o'gli, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO'RAVONLIK VA KIBERBULLING. International Journal of Contemporary Scientific and Technical

Research, 62-66.

16. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
17. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O‘QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
18. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. (2016). Суицид – это не просто способ обратить на себя внимание. *European journal of education and applied psychology*, (2), 64-67.
19. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
20. Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).
21. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.
22. Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.
23. NORBEKOVA, B. (2021). Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations.
24. Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНинг ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Насставник"*.